



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



www.uza.uz


№7(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 264 sahifa,
13-iyul, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bolalik davridagi autizmning turli shakllarini differensial tashxislash	10
<i>Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan korreksion ish tamoyillari	14
<i>Karimova Zulfiya Abduraxmanovna, Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari	19
<i>Dadonova Aziza Tulkunovna</i>	
Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini psixologik tahlili	23
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida muammoli o'qitish texnologiyasi	30
<i>Tuksanova Zilola Izatulloyevna</i>	
Shahar va qishloq yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarning qiyosiy tahlili	35
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Organik kimyo ta'limida ochiq tipli STEAM loyihalarini loyihalashning didaktik modeli va uni amaliyotga joriy etish metodikasi	41
<i>Bo'riyev Rashidbek O'ktamjonovich</i>	
Kasbiy kompetentlikni oshirishda raqamli ta'lim vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish	47
<i>Fazildjanova Nilufar Xikmatdjanovna</i>	
Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion va ta'lim ekotizimidagi roli	50
<i>Mirzayeva Nigora Ibrohimjon qizi</i>	
Kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etishning nazariy-metodologik asoslari	54
<i>Qobilov Voxidjon Zoxidovich</i>	
Психологические факторы мотивации личности в обучении иностранному языку	58
<i>Мухамеджанова Римма Рашидовна</i>	
Jadid ma'rifatparvarlarining boshlang'ich ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda kitobxonlik fazilatlarini va madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik tajribalari	66
<i>Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Fayzilova Mohinur Azamhon qizi</i>	
Talabalarda kelajakni strategik modellashtirish layoqatini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalarning qiyosiy-pedagogik tahlili	70
<i>Sadriddinova Feruza Meliyevna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda fanlararo abstsessial va ordinal bog'liqlikka asoslangan metodik ta'minotni takomillashtirish	75
<i>Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich</i>	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish: muammo va yechimlar	80
<i>Qudratov O'ktam G'ofurovich</i>	
Ustoz-shogird tizimida raqamli vositalardan foydalanishning metodik asoslari	85
<i>Tursunov Xusniddin Isomovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda maktab va oila hamkorligining pedagogik imkoniyatlari	88
<i>Safarova Halovat Barnoyevna</i>	
Globallashtirish sharoitida tolerantlik madaniyatining nazariy-metodologik asoslari	91
<i>Yusupova Maftuna Ilxomidin qizi, Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi</i>	
Adobe After Effects muhitida inersiyaviy davomiylik va ustma-ust harakatni avtomatlashtirishning matematik modeli (Ziyoanim Overlap)	97
<i>Hakimov Bahtiyorjon Muzaffar o'g'li</i>	
Tizimli yondashuv asosida talabalarning raqamli kompetensiyasini takomillashtirishning uch komponentli konseptual modeli	101
<i>Kulidjanova Yulduzxon Inomjon qizi</i>	



The Theory of Fostering Students' Responsibility for Natural Resources and Waste in Karakalpak Folk Pedagogy.....	104
Tursinbekova Qundizgul Joldasbekovna	
Soft skills kompetensiyalarining ilmiy-pedagogik mohiyati va zaruriyati: soft skills tushunchasining evolyutsiyasi, asosiy komponentlari, turlari va tasnifi	109
Igamberdiyeva Gulmira Botir qizi	
O'zbek va ingliz tillarida "yolg'izlik" konseptining leksik-semantik xususiyatlari.....	115
Sabina Saitmurodova Olim qizi	
Bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlashda art-pedagogikaning imkoniyatlari.....	119
Komolova Iroda Xamidullayevna	
9-sinf iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida GIS texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va uslubiy muammolari	123
Sapayeva Gulbahor Odilbek qizi	
Zamonaviy biologiya ta'limida interaktiv metodlarni qo'llashning nazariy jihatlarini	126
Abdullayeva Guzalxan Vladimirovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorlashning zarurati	130
Berdimurodova Mexrubon Masudjonovna	
Nutq nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuv jarayoniga ta'sir etuvchi omillar	136
G'aniyeva Maloxat Odilovna	
Ruh salomatlikni mustahkamlashda psixologik treninglarning ahamiyati	140
Maqsuda Norbosheva, Nafisa Abduyeva	
Xitoy tilini xalqaro miqyosda o'qitishning zamonaviy tendensiyalari.....	144
Shasaidova Lola Shamaksudovna	
Социально-экологический кризис в Южном Приаралье.....	149
Сейтова З. П.	
Iqtisodiy fanlar bo'yicha to'garak faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodik asoslari.....	153
Xusanboyeva Tursunoy Muxammadqasimjanovna	
Motivational Readiness for Continuous Professional Development.....	162
Okilova Kamola Sadulloyevna	
Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarda antisotsial xulq-atvorning oldini olishning pedagogik mexanizmlari ..	166
Davronova Zarrina Baxtiyorovna	
Yapon tilini o'qitishda らしい (rashii) evidentsiallik ko'rsatkichini o'rgatishning pedagogik xususiyatlari	173
Musayeva Aziza Ibrohim qizi	
Ta'lim tizimini rivojlantirishda pedagogik prognostikaning nazariy-metodologik asoslari va metodik imkoniyatlari.....	178
Sharipova Shaxnoza Xasanovna	
Qoraqalpoq nasrida inson psixologiyasi.....	183
Dosbergenova Miyrigul Sadiratdinovna	
Tibbiy ta'lim klasterida talaba markazlashgan muhitni shakllantirish: kredit-modul sharoitida intellektual adaptiv tyutorlik texnologiyasining pedagogik imkoniyatlari	188
Ibragimova Venera Azadovna	
Turli yosh davrlarida perfektsionizm va maqullanish motivatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish.....	193
Nazaraliyeva Marhabo Xayitboyevna	
Frazeologik derivatsiyaning lingvomadaniy xususiyatlari	197
Raxmonova Gavhar Nuritdinovna	
Development of adolescent thinking and its psychodiagnostics and psychocorrection	202
Samarova Shoxista Rabidjanovna	
Jadid pedagogik konsepsiyasi va zamonaviy ta'lim tizimi integratsiyasi: tarixiy-pedagogik tahlil va amaliy yo'nalishlar	209
Shamsullayeva Ruxsatoy Sunnatullayevna	

Kredit-modul tizimi asosida kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarini kasbiy kompetensiyalarini baholashning pedagogik mexanizmi	213
Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich	
Modern Socio-Psychological Trends in the Study of Emotional Alienation	219
Yangibaeva Dildorakhon Rakhmon kizi	
O'quv-mashq guruhi futbolchilarining jismoniy tayyorgarligi.....	225
Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li	
Sport ta'limida axborot bilan boyitilgan o'quv muhitini yaratish va vizualizatsiya vositalarining didaktik imkoniyatlari	230
Muxitdinova Nigora Mexriddinovna	
Bo'lajak mutaxassislarda yangi avlod darsliklari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	236
Abdujalilov Farruxbek Po'latjon o'g'li	
O'smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishining psixologik xususiyatlari.....	239
Robiya Toshpo'latova Akmal qizi, X. A. Asqarova	
Aralash ta'limning pedagogik mohiyati va didaktik tamoyillari.....	244
Azerbayeva Elmira Muratbayevna	
Texnikaviy fanlarni o'qitish jarayonini tashkil qilish	248
Niyazova Bibiniso Boltayevna	
Estetik tarbiya va ruhiy go'zallik: san'at va adabiyotga muhabbat orqali shaxsdagi buzg'unchi xulq-atvorning oldini olish.....	253
Nigora Yo'ldasheva Sodiqjon qizi	
Raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak qishloq xo'jaligi muhandislarini loyihalash-konstruksiyalash faoliyatiga tayyorlash metodikasini takomillashtirish	259
Xolmo'minova Shahnoza Gulyam qizi	

TEXNIKAVIY FANLARNI O'QITISH JARAYONINI TASHKIL QILISH

Niyazova Bibiniso Boltayevna

Qarshi davlat texnika universiteti assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim maqsadi va o'quv jarayonlarining o'zaro uyg'unligi hamda o'quv jarayonida erishilishi mumkin bo'lgan maqsadlarning aniq va tizimli belgilanishi zarurligi tahlil qilingan. Shuningdek, o'qitish texnologiyasining mazmuni, pedagogning individual o'qitish uslublari, texnikaviy fanlarni o'qitish jarayonini samarali tashkil etishning pedagogik asoslari hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati yoritilgan. O'qitish texnologiyasi pedagogning kasbiy mahorati, metodik yondashuvlari va shaxsiy tajribasi asosida shakllanadigan uzluksiz rivojlanib boruvchi jarayon sifatida tavsiflanadi.

Kalit so'zlar: ta'lim, texnikaviy fanlar, o'qitish texnologiyasi, ta'lim maqsadi, konstruktiv yondashuv, tashkiliy faoliyat, pedagogik texnologiyalar, texnik ta'lim, kasbiy kompetensiya, qiziqish.

Abstract: This article analyzes the alignment between educational objectives and the teaching-learning process, emphasizing that learning outcomes should be clearly defined, systematic, and achievable. The study also examines the essence of teaching technology, the role of teachers' individual instructional approaches, the pedagogical foundations for organizing the teaching process of technical disciplines, and the significance of applying modern educational technologies. Teaching technology is characterized as a continuously developing process shaped by teachers' professional competence, methodological approaches, and pedagogical experience.

Key words: education, technical disciplines, teaching technology, educational objectives, constructive approach, organizational activities, pedagogical technologies, technical education, professional competence, motivation.

Аннотация: В данной статье проанализирована взаимосвязь целей образования и учебного процесса, а также обоснована необходимость чёткого, системного и достижимого определения образовательных целей. Рассмотрены сущность технологии обучения, роль индивидуального педагогического стиля преподавателя, педагогические основы организации преподавания технических дисциплин и значение использования современных образовательных технологий. Технология обучения рассматривается как непрерывно развивающийся процесс, основанный на профессиональном мастерстве, методических подходах и педагогическом опыте преподавателя.

Ключевые слова: образование, технические дисциплины, технология обучения, цели образования, конструктивный подход, организационная деятельность, педагогические технологии, техническое образование, профессиональная компетентность, мотивация.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida texnikaviy fanlarni o'qitish yuqori malakali muhandis, texnolog va texnik mutaxassislarni tayyorlashning muhim omili hisoblanadi. Texnikaviy fanlarni o'qitish jarayonini samarali tashkil etish talabalarda nazariy bilimlarni shakllantirish bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, mustaqil fikrlash hamda innovatsion yechimlar qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ta'lim maqsadi deganda o'quvchilarda tanlangan mutaxassslik bo'yicha, xususan, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirishga oid maxsus tushunchalarni shakllantirish, qonun va qoidalarni o'rgatish tushuniladi.

- Texnika va texnologiya asoslarini o'rgatish;
- muhandislik tafakkurini shakllantirish;
- amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish;
- texnik muammolarni tahlil qilish va hal etish qobiliyatini shakllantirish;
- raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish.



Texnikaviy fanlarni o'qitish quyidagi didaktik tamoyillarga asoslanadi:

1. **Ilmiylik tamoyili** – o'quv materiallari zamonaviy fan va texnika yutuqlariga asoslangan bo'lishi lozim.
2. **Tizimlilik va izchillik** – mavzular oddiydan murakkabga qarab izchil ketma-ketlikda bayon qilinadi.
3. **Nazariya va amaliyot birligi** – nazariy bilimlar laboratoriya ishlari, amaliy mashg'ulotlar va ishlab chiqarish amaliyoti bilan mustahkamlanadi.
4. **Faollik va mustaqillik** – talabalarning mustaqil ta'lim olishi va ijodiy faoliyati qo'llab-quvvatlanadi.
5. **Ko'rgazmalilik** – maketlar, modellar, multimedia vositalari va zamonaviy dasturlardan foydalaniladi.

Texnikaviy fanlarni o'qitishning asosiy shakllari ma'ruza mashg'ulotlari, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari, mustaqil ta'lim hamda ishlab chiqarish amaliyotidan iborat. Ma'ruza mashg'ulotlari talabalarga nazariy bilimlarni yetkazishning asosiy shakli hisoblanadi.

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar nazariy bilimlarini amaliy misollar orqali mustahkamlaydilar. Laboratoriya mashg'ulotlarida turli qurilmalar va jihozlar yordamida tajribalar o'tkaziladi. Mustaqil ta'lim jarayonida talabalar adabiyotlar bilan ishlaydi, hisob-kitob ishlarini bajaradi va loyihalar tayyorlaydi. Ishlab chiqarish amaliyoti davomida esa talabalar haqiqiy ishlab chiqarish sharoitida kasbiy tajriba orttiradilar.

Texnikaviy fanlarni o'qitishda quyidagi metodlar qo'llaniladi:

- tushuntirish va hikoya qilish;
- suhbat va munozara;
- muammoli ta'lim;
- keys-metod;
- loyiha usuli;
- interfaol usullar;
- raqamli ta'lim texnologiyalari.

Samarali o'qitishni ta'minlash uchun quyidagi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- multimedia taqdimotlari;
- virtual laboratoriyalar;
- elektron ta'lim platformalari;
- masofaviy ta'lim texnologiyalari;
- CAD/CAM dasturlari;
- simulyatorlar va trenajyorlar.

Texnikaviy fanlar quyidagi bilim berish guruhlariga bo'linadi:

- ko'rsatmali-texnologik;
- texnik-konstruktiv;
- tashkiliy-texnikaviy.

Mazkur bilim berish guruhlarining maqsadi quyidagilardan iborat: Ko'rsatmali-texnologik ta'lim jarayonida o'quvchilarga muayyan texnikaviy fan bo'yicha texnologiyalar, mehnat turlari va bajariladigan ishlar mazmuni o'rgatiladi. Texnik-konstruktiv ta'limda texnikaning konstruksiyasi, tuzilishi, tarkibiy qismlari hamda texnika xavfsizligi masalalari o'rganiladi. Tashkiliy-texnikaviy ta'limda ishlab chiqarishni tashkil etish, ish unumdorligini oshirish, materiallar va ish qurollaridan oqilona foydalanish masalalari yoritiladi.

Talabalarda texnikaga qiziqish va havas uyg'otish uchun o'quv jarayonini to'g'ri tashkil etish lozim. Agar ta'lim-tarbiya jarayonida berilayotgan ta'lim o'quvchi uchun shaxsiy ahamiyat kasb etsagina, unda ta'limga nisbatan qiziqish uyg'onadi va ta'lim maqsadi shaxsning ehtiyojiga aylanadi. O'quvchilarda bilim olishga intilishni uyg'otish o'qituvchining asosiy vazifalaridan biridir. O'quvchilarda qiziqish uyg'onganining muhim belgilaridan biri ularning berilgan topshiriqlarni qiziqish bilan bajarishi va ularni to'liq bajarishga intilishidir.

Ta'lim olish maqsadi aniq belgilanmagan bo'lsa, o'quvchilarda bilim olishga qiziqish susayadi. Natijada o'quvchilar o'qishni xohlamaydi, degan noto'g'ri xulosa yuzaga keladi. Bundan tashqari, o'quvchilarda bilim



olishga qiziqish uyg'otish uchun o'qitishning ilg'or pedagogik texnologiyalaridan foydalanish zarur. Bunda, avvalo, o'quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etishga imkon beradigan pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ammo ayrim hollarda "o'qitish texnologiyasi" va "o'qitishda texnologiya" tushunchalari o'zaro farqlanmaydi. O'qitish texnologiyasi deganda o'qituvchiga ma'lum bo'lgan hamda uning shaxsiy pedagogik uslublari asosida ta'lim berish tizimi tushuniladi. Har bir pedagogda o'zi o'qitayotgan fan va mutaxassislik xususiyatlariga mos o'qitish uslublari shakllanadi. Bu jarayon vaqt o'tishi bilan takomillashib boradi. O'qitishda texnologiya deganda esa o'qitish jarayonida texnik vositalar, ko'rgazmali materiallar va axborot texnologiyalaridan foydalanish tushuniladi.

O'qitish texnologiyasi har bir darsni rejalashtirishdan boshlab yakuniy natijalarni baholashgacha bo'lgan barcha bosqichlarni qamrab oladi. Bu jarayonni bilim berish – tushunish – qo'llash – tahlil va sintez qilish – baholash ketma-ketligi sifatida tushunish lozim. Aniq maqsadga erishish uchun ta'lim jarayonida o'qitish texnologiyasi va o'qitishda texnologiyadan uyg'un holda foydalanish maqsadga muvofiq. Mutaxassislik fanlarini o'qitish ikki asosiy tarkibiy qismdan – texnika va texnologiyadan iborat. Texnika – tuzilishi, vazifasi, ishlash jarayoni, texnik ko'rsatkichlari va texnika xavfsizligini o'z ichiga oladi.

Texnologiya – ishni tashkil etuvchi obyekt, undan foydalanish rejimi va bosqichlari, obyektning tashkil etuvchi elementlarning ish sifati hamda jarayonni baholashni qamrab oladi. Agar ushbu ikki tarkibiy qism dars jarayonida o'zaro uyg'un holda olib borilsa, o'quvchilarning o'zlashtirish va tushunish darajasi ortadi. Talabalarni bilimlarni o'zlashtirish darajasiga ko'ra shartli ravishda uch toifaga ajratish mumkin:

- bilimni o'zlashtirishi qiyin bo'lgan talabalar;
- talabalarning 5-7 foizini tashkil etuvchi bilimni tez o'zlashtiradigan talabalar;
- talabalarning 90-92 foizini tashkil etuvchi o'rtacha darajada o'zlashtiradigan talabalar.

Talabalarning texnikaviy va mutaxassislik bilimlarini shakllantirish, rivojlantirish hamda o'zlashtirish darajasini yaxshilash uchun quyidagi talablar bajarilishi lozim, deb hisoblaymiz:

- o'qitish metodi o'quv materialiga mos bo'lishi;
- o'qitish metodi o'quvchilarda motivatsiyani shakllantirishi hamda mustaqil ishlashga imkon yaratishi;
- o'qitish metodi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda amalga oshirilishi;
- o'qitish metodi o'quvchilarning yoshi va bilim darajasiga mos ravishda tanlanishi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Texnikaviy fanlarni o'qitish jarayonini samarali tashkil etish zamonaviy oliy ta'lim tizimining eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Fan va texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish texnologiyalarining uzluksiz yangilanib borishi hamda raqamli iqtisodiyot sharoitida muhandis kadrlarga qo'yilayotgan talablarning ortishi texnik ta'lim mazmunini takomillashtirishni, o'qitish metodlari va vositalarini zamonaviy pedagogik hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Pedagogika fanida texnik ta'limni tashkil etish masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Xususan, J. Dewey, L. Vygotskiy, J. Bruner, D. Kolb, B. Bloom, R. Gagné kabi olimlar ta'lim jarayonini tashkil etishning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqqanlar. Ularning ilmiy qarashlarida bilimlarni faol egallash, tajribaga asoslangan o'qitish, muammoli vaziyatlarni hal qilish, kompetensiyalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish hamda o'quvchining mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlash masalalari keng yoritilgan. Mazkur yondashuvlar texnik fanlarni o'qitishda amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari va loyiha faoliyatini samarali tashkil etish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi yillarda muhandislik ta'limini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda kompetensiyaviy yondashuv alohida o'rin egallamoqda. Ushbu yondashuvga ko'ra, ta'lim jarayonining asosiy maqsadi talabalarda nazariy bilimlarni shakllantirish bilan bir qatorda ularni real ishlab chiqarish sharoitida qo'llashga xizmat qiluvchi kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishdan iborat. Shu nuqtai nazardan, texnik fanlarni o'qitish jarayonida muammoli ta'lim (Problem-Based Learning), loyihaviy ta'lim (Project-Based Learning), tadqiqotga yo'naltirilgan o'qitish (Inquiry-Based Learning) va CDIO (Conceive–Design–Implement–Operate) modeli keng qo'llanilmoqda.

Muhandislik ta'limiga oid ilmiy tadqiqotlarda texnik fanlarni ishlab chiqarish bilan integratsiyalash masalasiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Ko'plab olimlarning fikriga ko'ra, nazariya va amaliyotning uzviy bog'liqligini ta'minlash bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi. Shu sababli laboratoriya mashg'ulotlari, amaliy topshiriqlar, kurs loyihalari, ishlab chiqarish amaliyoti va startap loyihalarini o'quv jarayoniga integratsiya qilish texnik fanlarni o'qitishning muhim komponenti hisoblanadi.



Raqamli transformatsiya sharoitida texnik fanlarni o'qitish metodikasida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Elektron ta'lim platformalari, virtual laboratoriyalar, masofaviy ta'lim texnologiyalari, bulutli servislari, sun'iy intellekt tizimlari va raqamli modellash tirish vositalari o'quv jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. Xususan, Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams, Autodesk, SolidWorks, AutoCAD, MATLAB, ANSYS va boshqa dasturiy vositalardan foydalanish talabalarning mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirib, murakkab texnik jarayonlarni vizual modellash tirish va tahlil qilishni osonlashtirmoqda.

Ilmiy manbalarda texnik fanlarni o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish samaradorligi ham keng yoritilgan. "Aqliy hujum", "Keys-stadi", "Klaster", "Baliq skeleti", "Konseptual xarita", "SWOT tahlil", "Debat", "Flipped Classroom" va "Blended Learning" kabi metodlar talabalarning tanqidiy va muhandislik tafakkurini rivojlantirish, muloqot kompetensiyasini shakllantirish hamda muammolarni mustaqil hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini rivojlantirishga oid davlat dasturlarida ham texnik ta'limni modernizatsiya qilish, raqamli ta'lim muhitini yaratish, dual ta'limni rivojlantirish hamda ishlab chiqarish bilan integratsiyani kuchaytirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Shu asosda texnik fanlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o'quv dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, kredit-modul tizimini takomillashtirish va kompetensiyaga asoslangan ta'limni rivojlantirish bo'yicha qator ilmiy-amaliy ishlar amalga oshirilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot texnikaviy fanlarni o'qitish jarayonini samarali tashkil etishning pedagogik asoslarini aniqlash hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalarini o'quv jarayoniga integratsiyalash imkoniyatlarini baholashga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi tizimli, kompetensiyaviy, faoliyatga yo'naltirilgan, integrativ va raqamli ta'lim yondashuvlari asosida ishlab chiqildi. Tadqiqotning nazariy asosini texnik ta'lim, muhandislik pedagogikasi, kompetensiyaviy ta'lim, konstruktivizm, faol o'qitish va raqamli ta'lim texnologiyalariga oid mahalliy hamda xorijiy ilmiy manbalar tashkil etdi. Xususan, texnik fanlarni o'qitishda nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash, talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirish, ishlab chiqarish bilan integratsiyani kuchaytirish hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha ilmiy qarashlar metodologik asos sifatida qabul qilindi. Tadqiqot davomida tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, tizimli tahlil, pedagogik kuzatish, ilmiy adabiyotlarni o'rganish, normativ-huquqiy hujjatlar tahlili hamda pedagogik modellash tirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, texnik fanlarni o'qitish jarayonida qo'llanilayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli ta'lim platformalari, virtual laboratoriyalar, simulyatsion dasturlar va kompyuter yordamida loyihalash tizimlarining didaktik imkoniyatlari tahlil qilindi.

Texnik fanlarni o'qitish samaradorligini oshirish maqsadida o'quv jarayonining maqsad, mazmun, metod, shakl, vosita va baholash komponentlari o'zaro uzviy bog'liq yagona pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqildi. Mazkur tizimda muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning), tadqiqotga yo'naltirilgan ta'lim (Inquiry-Based Learning), CDIO (Conceive-Design-Implement-Operate) modeli hamda interfaol metodlarning o'zaro integratsiyalashuvi asosiy metodik yondashuv sifatida belgilandi. Shuningdek, tadqiqotda texnik fanlarni o'qitishda Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams, AutoCAD, SolidWorks, MATLAB, ANSYS va boshqa raqamli platformalar hamda muhandislik dasturlarining o'quv jarayonidagi o'rni baholandi. Ularning talabalarning kasbiy kompetensiyalari, muhandislik tafakkuri, texnik tahlil qilish, loyihalash va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga ta'siri metodik nuqtai nazardan tahlil qilindi. Mazkur metodologik yondashuv texnik fanlarni o'qitish jarayonini zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalar asosida tashkil etishning samarali modelini ishlab chiqish hamda uning didaktik imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari texnikaviy fanlarni o'qitish jarayonini zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi. Tahlillar natijasida texnik fanlarni o'qitishda nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash, interfaol metodlardan foydalanish hamda raqamli ta'lim vositalarini o'quv jarayoniga integratsiyalash talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil ekanligi aniqlandi. Aniqlanishicha, loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim va amaliy topshiriqlarga yo'naltirilgan mashg'ulotlar talabalarning muhandislik tafakkurini, mantiqiy fikrlashini, texnik muammolarni tahlil qilish va ularning yechimlarini ishlab chiqish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, laboratoriya mashg'ulotlarini virtual laboratoriyalar, simulyatsion platformalar va kompyuter modellash tirish vositalari bilan uyg'unlashtirish murakkab texnologik jarayonlarni xavfsiz, iqtisodiy va samarali o'rganish imkonini yaratadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, AutoCAD, SolidWorks, MATLAB, ANSYS kabi muhandislik dasturlaridan foydalanish talabalarning fazoviy tafakkurini, texnik chizmalarni o'qish va yaratish, konstruktiv fikrlash hamda muhandislik hisob-kitoblarini bajarish kompetensiyalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Elektron ta'lim platformalari va masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish esa talabalarning mustaqil ta'lim olish faolligini oshirib, o'quv materiallarini o'zlashtirishning individuallashtirilishini ta'minlaydi.

Shuningdek, o'qitish jarayoniga zamonaviy baholash mexanizmlarini joriy etish, jumladan, elektron testlar, loyiha ishlari, amaliy topshiriqlar, portfoliolar va formatif baholash usullaridan foydalanish talabalarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini kompleks baholash imkonini beradi. Bu esa ta'lim natijalarining xolisligi va ishonchligini oshiradi. Olib borilgan tahlillar asosida texnikaviy fanlarni o'qitish samaradorligini oshirish uchun quyidagi pedagogik shartlar muhim ekanligi aniqlandi: o'quv jarayonini raqamlashtirish, nazariya va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish, zamonaviy muhandislik dasturlaridan foydalanish, interfaol metodlarni keng qo'llash, ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikni rivojlantirish hamda kompetensiyaga asoslangan ta'lim modelini izchil joriy etish.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari texnikaviy fanlarni o'qitish jarayonini zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etish talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish va zamonaviy ishlab chiqarish talablariga mos raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning muhim omili ekanligini tasdiqladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, texnikaviy fanlarni o'qitish jarayonini samarali tashkil etish zamonaviy oliy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, ishlab chiqarish jarayonlarining raqamlashtirilishi hamda mehnat bozorida malakali muhandis kadrlarga bo'lgan ehtiyojning ortishi texnik ta'lim mazmuni va metodikasini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, texnikaviy fanlarni o'qitishda nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash hamda raqamli ta'lim muhitini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari texnikaviy fanlarni o'qitish samaradorligini oshirishda kompetensiyaga asoslangan yondashuv, muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish, interfaol metodlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan kompleks foydalanish talabalarning kasbiy tayyorgarligi sifatini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi. Xususan, virtual laboratoriyalar, elektron ta'lim platformalari, simulyatsion dasturlar hamda CAD/CAM tizimlarini o'quv jarayoniga integratsiyalash talabalarning texnik tafakkurini, muhandislik kompetensiyalarini va mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, texnikaviy fanlarni o'qitish jarayonida ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikni rivojlantirish, amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish, zamonaviy baholash mexanizmlarini joriy etish hamda individual ta'lim trayektoriyalarini qo'llash ta'lim sifatini yanada yuksaltirish imkonini beradi. Mazkur yondashuvlar talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish, muammolarni tahlil qilish va samarali yechimlar ishlab chiqish kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqot asosida texnikaviy fanlarni o'qitish jarayonini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan metodik yondashuvlar oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini samarali tashkil etishga, zamonaviy muhandislik ta'limi talablariga mos o'quv muhitini yaratishga hamda talabalarning kasbiy kompetensiyalarini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur metodik tavsiyalarni amaliyotga joriy etish texnik ta'lim sifatini oshirish, bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirish va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mos, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun zarur ilmiy-metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Usmonov B. Sh., Xabibullayev R. A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. – Toshkent: TKTI, 2020. – 120 bet.
2. Azizov U. Kredit-modul tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari. – http://uzbekistonovozi.uz/uz/articles/index.php?ECTION_ID=161&ELEMENT (manbaga 24.09.2020 da murojaat etilgan).
3. Maxmonov U. A. Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish va nazorat qilish texnologiyasi. "Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari" nomli elektron jurnal. № 1, 2021.
4. Avliyakov N. X., Musayeva N. N. Pedagogik texnologiya. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Cho'lpon NMIU, 2012. – 208 b.
5. Is'hoqova Z. Mustaqil ish qanday yoziladi: "Falsafa" fani bo'yicha mustaqil ta'lim uchun o'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: "Yangi nashr", 2.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.